


6-2023

OSTHELI



**Muassislar:**

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi,  
O'zbekiston yoshlar ittifoqi.  
1982-yildan chiqsa boshlagan.

**Tahrir hay'ati:**

Sirojiddin SAYYID  
Iqbol MIRZO  
Nodir JONUZOOQ  
G'afur SHERMUHAMMAD  
G'ayrat MAJID  
Abdusaid KO'CHIMOV  
Kengesboy KARIMOV  
Shuhrat SIROJIDDINOV

**Jamoatchilik kengashi:**

Qahramon QURONBOYEV  
Alisher SA'DULLAYEV  
Minhajiddin MIRZO  
Botirjon ERGASHEV  
Bahodir KARIMOV  
Rustam MUSURMON  
Farrux JABBOROV

**Bosh muharrir:**

Nurilla CHORI

**Mas'ul kotib:**  
G'tyosiddin O'NAROV

**Muharrirlar:**

Sardor TOLLIBOYEV  
Shohsanam NISHONOVA  
Ozod RAVSHANOV

**Rassom:**  
Asliddin KALONOV

**Manzilimiz:**

Toshkent shahri, Chilonzor tumani,  
Bunyodkor ko'chasi, Adiblar xiyoboni,  
O'zbekiston Yozuvchilar  
uyushmasi binosi.  
Indeks 100066

E-mail: yoshlik-jurnali@umail.uz  
Veb sayt: www.yoshlikjurnali.uz  
Tel.: (71) 231-20-58, 231-20-59

Navbatchi muharrir: S. Tolliboyev

## Otarchining she'ri yoqadimi?

Yaqinda bir odamning ijtimoiy tarmoqda: "Meni Yozuvchilar uyushmasi a'zolikka qabul qilmayapti", deb dodlab yotganiga ko'zim tushdi. Bu "dod-voy"ga birdaniga "labbay", deb javob beradiganlarning nihoyatda ko'pligini ko'rib hayron va lol bo'ldim. To'g'ri, ijtimoiy tarmoqda kimningdir orzusi ushalishi uchun qayg'uradigan, unga mehr ko'rsatadigan, azbaroyi yordam qo'llini uzatadigan kishilarning safi kengligi, albatta, har birimizni quvontirishi kerak.

Ammo masalaning boshqa tomonlari ham bor-ku! Mundoq o'ylab qarang, bolaligida to'p tepmagan, futbolga mehr qo'yagan yigit bormi? Qolaversa, sportning yakka kurash turlari bo'yicha qanchadan qancha yigit-qizlar muntazam shug'ullanib kelishadi.

Agarda har birimiz: "Meni nega palon tashkilot o'z safiga olmayapti", deb dod solishga haqli bo'lsak, anchadan buyon to'p tepmagan kamina futbol bo'yicha O'zbekiston Milliy terma jamoasiga, yana kimdir O'zbekiston Kurash federatsiyasiga, boshqa birov O'zbekiston Xalq tabobati assotsiatsiyasiga da'vo qilmaydimi?

Keling, bema'ni xayolga erk bermaylik. Shundoq ham hisobchi shifokor bo'lib, shifokor tadbirdorlik qilib, traktorchi "qo'shiq" aytib, hosilot "kino" olib, otarchi "she'r" yozib yotibdi.

Agarda shunday odamlarga qilayotgan yumushi haqida gap boshlasangiz, bilingki, ular, albatta, tuyaqush haqidagi mana bu masalni eslatadi: "Tuyaqushga qushsan deb aytishsa, tuyaman, tuyasan deb aytishsa, qushman", – der ekan. Aniqki, bu bilan tuyaqush hech qanday mas'uliyatni bo'yniga olmaydi.

Advokat do'stlar!

Siz shu odamning biror asarini o'qiganmisiz, albatta, o'qimagansiz! To'g'rirog'i, sizga uning a'zoligining ham ko'p qiziqchiligi yo'q!

Aslida siz shu "arz-dod" janrida ijod qiladigan mardum bahonasida kimnidir obro'sizlantirish, yana kimnidir haqoratlash, kimnidir aybdor qilish uchun javlon urib yozyapsiz.

Yo sizlarga traktorchining qo'shig'i, hosilotning kinosi, otarchining she'ri yoqadimi?

## *Ushbu sonda*

**4**

**Erkin A'zam**  
Yigirma yil  
kutilgan jurnal



**34**

**G'aybulloh  
as-Salom**  
Mutarjim  
maktabidan...



**9**

**Zuhiddin  
Isomiddinov**  
Ustoz – pir



**35**

**Ulug'bek  
Hamdam**  
Adabiyot bu –  
so'z san'ati

**12**

**Dilshod Rajab**  
Muhabbatsiz –  
g'arib bu olam...



**36**

O'zbek adabiyoti  
soldati

**15**

**Shuhrat  
Matkarim**  
Maqar



*Ushbu sonda*

**45**

**Nilufar  
Ergasheva**  
Muhabbatning  
tengliklarida...



**44**

**Zilolabonu  
G'anijon qizi**  
Bo'g'zimga tiqildi  
hayqiriqlarim...



**45**

**Ruxshona  
Nishonova**  
Hayvonot bog'ida



**58**

**Islombek  
Mirzaqulov**  
"Baxt" beraman  
degandim senga –



**46**

**Lev Tolstoy**  
Markyor xotiralari



**59**

**Burhon Rahmat**  
Kengaymoqda  
yurak hududim...



**57**

**O'Imasbek  
Raimqulov**  
Syratim bor  
gulgun qalbingda...



**60**



**Munisjon  
Hakimov**  
"Avval vatan,  
keyin jon!..."



**Munisjon  
HAKIMOV**

1984-yili tug'ilgan.  
O'zMUning  
Jurnalistika  
fakultetini  
tamomlagan.  
Mumtoz va  
zamonaviy o'zbek  
she'riyati tadqiqi  
bilan shug'ullanadi.

Jamol Kamol ijodini kuzatar ekanmiz, unda: Vatan, tabiat, sadoqat, mehr-muhabbat, ma'rifat kabilardan tortib adolat, do'stlik, ota-onas, halollik, diyonat singari ezgulikka, taraqqiyotga, hayotda kurashchanlikka chorlovchi ko'plab mavzularda qalam surilganiga guvoh bo'larniz. Ijoddagi mavzularning keng qamroviligi ijodkorning badiiy tafakkuri bilan bog'liq, albatta. Taniqli rus adibi M.Gorkiy: "mavzu muallif tajribasi asosida bunyodga kelgan, hayotning o'zi ko'rsatib bergen, ammo ayni vaqtida muallif tasavvurida to'la-to'kis shakllanmagan bir holda saqlanib, obrazlarda gavdalantirishni talab qilib, muallifda ishlashga mayl uyg'otadigan g'oyadir", – deganda ham mavzu va g'oyaning muallif tafakkuriga bog'liqligini ta'kidlaydi.

Jamol Kamol she'riyatidagi bosh mavzulardan biri Vatan, millat mavzusidir. Shoir bu mavzuda goh faxrlanib, goh kuyinib, goh hayratlanib, goh mushohada yuritib qalam tebratgan. Uning nazdida Vatan otadek tabarruk, onadek mehribon. U Yurtdan ajralishni musibat deb biladi:

Otam diyordimi ko'rolmadim men,  
Onasiz o'ssam-da, bo'lmadim yetim.  
Onam deb yerimga erkalandim men,  
Otam deb elim-la iftixor etdim.

Ko'rsatmasin, agar bir kun beomon,  
Yerimdan, elimdan ayirsa hijron,  
Boshimga yiqligan yetimlik tog'i  
Yakson etar edi meni shu zamon...

Sakkizlik hasbi hol xarakterida bo'lib, shoirning yetimlikda o'tgan bolaligiga ishora qiladi. Ota-onas bag'rida ulg'ayish baxti Jamol Kamolga nasib etmagan. Ammo bag'rikeng millati, Ona Vatani uni bu musibatdan yiroqlashtirib, unga baxтиyorlik hissini tuydirgan.

Shoir ijodidadgi "Eng buyuk tuproq", "Tun. Bog'imda kezaman...", "O'zbekiston tuni", "Buyuk trassa ilhom", "Ufuqlar", "Tasavvur" kabi dastlabki she'rlarida Ona Vatanning daryolari-yu kengliklari, tog'lari-yu bog'lari, tunlari-yu tonglari – barcha-barchasidan hayratlanish ko'zga tashlanadi. Jumladan, uning "Tasavvur" she'rida o'qiymiz:

*Hayrat – shu muhtasham jahon hayrati,  
Nolish – shu jahonga tashna armondan.  
Men avval entikib, bosib savlati,  
Ko'z uzmay turaman O'zbekistondan.*

Yosh shoir hali navqiron yigit – kitobxonga o'git berishni o'ziga ep ko'rmaydi. Chunki uning o'zi Vatanning, Vatan orqali dunyoning sir-u sinoatlarini bilishga mushtoq. Yurt tarixi esa juda qadim. Muqaddas qadamjolari-yu buyuk allomalari bisyor. Shuning uchun ham "avval entikib" o'rganishga kirishgan lirk qahramonni yurtning "savlati" bosadi. Ammo sir-sinoatlardan hayratlanib qolish shoirning maqsadi emas. Uning lirk qahramoni o'zini Vatanning bilaklari kuchga to'lgan, yurtning koriga yaraydigan o'g'loni deb biladi. Tomirlarida qon Jayhun yanglig' jo'sh uradi. Endi u hayrat-u g'ayrat bilan qardosh ellarning ham yumushlariga yelka tutmoqchi:

*Sening osmoningdan sog'inch bilan mast,  
Qadrdon ellarga tashlasam nazar,  
"O'g'lim!" – deb chaqirar mo'ysafid Kavkaz,  
"O'g'lim!" – deb chaqirar daryoyi Hazar...*

Lirk qahramonning tasavvuri yanada uzoqroqqa nigoh tashlaydi. Shoir Vatan so'ziga yanada kengroq ma'nolarni yuklab, butun yer-u osmonni – borliqni "mening Vatanim", deydi:

*Shu Osmon, shu Zamin – mening Vatanim,  
Shu Osmon, shu Zamin – mening Xudoyim.  
Bunda begona yo'q. barchasi manim.  
Mening Amerikam, mening Xitoyim!..*


She'rda ilgari surilayotgan fikr bugungi dunyoga qutqu solayotgan qutplashish, dunyoni

bo'lib olish, tarafakashlik, guruhbozlik siyosatiga qarshi zaruriy qalqon vazifasini o'taydi. Inson faqatgina o'zi mansub bo'lgan mamlakat tinchligini o'ylashi, sarhadlardan tashqaridagi yurtlarning tashvishlariga bee'tibor bo'lishi kaltabinlikdir. Qo'shning tinch – sen tinch, deydi dono xalq. Insoniyat uchun Yer shari umumiyl ekan, muammolar ham yurtlarga ayro-ayro taqsimlangan emas. Insoniyatga ofat keltirayotgan ekologik, siyosiy va iqtisodiy muammolar bu fikrlarni to'la tasdiqlaydi. Bu ofatlarga qarshi birgalikda, bahamjihat kurashishni talab qiladi. Va ayni damda barcha xalqlar baxtiyor yashashga haqli:

– *Bashar avlodining barchasi – inson.  
Vatan hammamizga – shu buyuk Zamin!*  
Shoir Vatan tushunchasining mohiyatini ochishda turli usullardan foydalangan. Jumladan, "Tasavvur" she'ridagi kabi ona yurt orqali dunyoni vatan deb bilish, uni ko'z qorachig'idek asrash uning sakkizligida dialog orqali ochib berilgan:  
– *Ona O'zbekiston, sendan so'rayman,  
Nelarni o'ylaysan shu farahli tun?*  
– *Jumla mamlakatga non bersam deyman,  
Kiyintirsam deyman uni bus-butun...*

– *Ona O'zbekiston, orzuli chaman,  
Qayergacha yetar mehring poyoni?*  
– *Men jumla dunyoga non bersam deyman,  
Kiyintirsam deyman jumla dunyoni...*

She'rda lirk qahramonning Vatan obrazi bilan suhbatlashishi va Vatan tilidan



insoniyatga cheksiz mehrning ifodalaniishi ta'sirchanlikni oshirgan.

Yuqoridagi she'rlarda shoir ona yurtda turib butun zaminga omonlik tilagan bo'lsa, "Yurtim" she'rida aksincha, jahorni dur bilsa, ona yurtini durdona deb biladi. Quyosh, osmon, zamin hamma yurt uchun bir, lekin u O'zbekistonning o'z porloq quyoshi, o'z musaffo osmoni, o'z bebafo zamini bo'lismeni orzu qiladi. Yaxshi kunlar bo'lganidek baxtsiz kunlar ham bor, albatta. "Judoliklar kelsa, boshing omon bo'lsin", – deydi shoir musibatlari kunlarga ishora qilib. She'r so'ngida u vataniga yana ezguliklarni sog'inadi. Bayramlari ko'p bo'lismeni, sahrolari, vodiylar-u daryolari nasib etishini so'raydi:

Nurli-nurli ayyomlaring bo'lib tursin,  
Nasib etsin senga oltin sahrolaring,  
Ovozingga to'lib tursin, to'lib tursin,  
Yurtim, chaman vodiylaring, daryolaring...

Vatan – O'zbekiston mavzusi Jamol Kamol ijodida shu qadar ko'lamdorki, buni shoirning ona yurt haqida turli janrlardagi she'rlaridan ham sezish mumkin. Mana uning sakkizliklaridan yana biri:

Yozib havolarda muzaffar qanot,  
Oshib sel karvoni – bulutlaringni,  
Ona O'zbekiston, ko'rdim men kushod  
Nurdan uqa tutgan ufuqlaringni...

Ulug' tabiatdan ulug' nasibam,  
Tarixdan hissamga tushgan makon shu! –  
Dedim-da, iftixon yashnatdi qalbim,  
Ko'zyoshlarim oqdi misoli yog'du...

Birinchi bandda yurtning tabiatini tasvir – sel yog'dirib o'tgan bulutlar qutqusidan ozod nurli ufqilar aks etgan. Bu ramziy xarakterga ega. "Sel karvoni – bulutlar" Vatanning qora, baxtsiz kunlari, "ufuqlar" esa kelajak, umid. Ya'ni lirik qahramon qora kunlarni ortda qoldirgan Vatanining baxtli kelajak tomon, orzular tomon intilishini istaydi.

Uni tanlab bo'lmaydi. Shuning uchun u lirik qahramonga "ulug' tabiatdan ulug' nasiba". Lirik qahramonning "misoli yog'du" ko'zyoshlari

"ulug' nasiba"ning kelajagi uchun oqayotgan holati dastlabki banddag'i "Nurdan uqa tutgan ufuqlar" qiyoslangan.

Shoirning boshqa sakkizligida esa tabiiy jarayonlar insoniy illatlarga ko'chirilganligiga guvoh bo'lamiz:

Ona Yer, har kuni olam ufqiga  
Ko'zyoshing oqizar bahri ummonlar...  
Bahri ummon bo'lib qo'zg'almas nega  
Senga banda bo'lgan tirik insonlar?

Ona Yer, ona Yer, boshingda tutun,  
Bag'ringdan otilar o'tli vulqonlar...  
O'tli faryodingdan bir kunmas-bir kun  
Tikka qo'zg'almasmi o'lik insonlar?..

Bahri ummonlarda oqayotgan suv emas, Ona Yer ko'zyoshlari, tutunli vulqonlar Ona Yerning bag'ridan otilayotgan o'tli ohlari. Ritorik so'roq orqali insoniyatning sergaklikka, ogohlilikka chorlanishi bilan millatlararo nizolarga, shafqatsizlikka barham berilishi, da'vat etilishi, "o'lik insonlar"ning uyg'oqlikka da'vati alam bilan ifoda etilgan. Ya'ni lirik qahramon Vatanga, Ona sayyoraga mehrli bo'lish borasida "suhbatdoshini o'ziga fikrdosh qilish, o'ziga nisbatan xayrixohlik, rozilik hislarini uyg'otish maqsadida" ritorik so'roqni qo'llagan.

Baxtiyorlik emas, balki o'kinch ohangida Vatanga muhabbat uyg'otish g'oyasi Jamol Kamolning bu mavzudagi she'riyatida ko'plab uchraydi. Uning yuqorida tahlil etilgan sakkizligidagi o'kinch taajjubli bo'lsa, quyidagisida kuzatishlar xulosasi sifatida jarang sochadi:

Seni yondirdilar, seni sotdilar,  
Necha bor qatlingga ichdilar qasam.  
Va lekin o'zları qonga botdilar,  
Va lekin o'zları topdilar barham.

Sen esa jahonda sobitsan hamon,  
Sobitsan, vatanlik sharafing oqlab.  
Kelganlar holiga boqasan hayron,  
Ketganlar yodini yodingda saqlab...

“Fayzulla Xo‘jayev ko‘zlari” muxammasida lirik qahramon o‘zini F.Xo‘jayev ko‘zlari oldida hisobdor qilar ekan, ularda “chorasiz ko‘zlarga cho‘kkан hasrat” yanglig‘ Vatan timsolini ko‘radi:

*G‘urur bu, e’tiqod bu, jabhalarda shonli nusrat bu,  
Munavvar orzular yo‘lida yetgan ranj-u kasrat bu.  
Vatan bu, choraziz ko‘zlarga cho‘kkан hasrat bu,  
Bular birlikda gohi kuydirib, bag‘rimni qon aylar,  
Bu ko‘zlar imtihon aylar, bu ko‘zlar imtihon aylar...  
Yurt qayg‘usida jafo chekkan vatandosh ko‘zları  
lirik qahramon bag‘rini kuydirib, “imtihon aylar”.  
Vatan oldida barcha hisobdor, inson unga sadoqat  
ko‘rsatsa, elning ardog‘ida bo‘ladi.*

Shuningdek, Vatan mavzusi Jamol Kamolning g‘azallarida ham asosiy mavzulardan biri. Uning “Vatan”, “Avval Vatan, keyin jon” kabi she’rlari mumtoz janrlarda ham bu mavzuda qalam tebratish mumkinligini to‘la-to‘kis isbotlab bergen. “Vatan” g‘azalida lirik qahramon xayollar osmonida parvoz qilishi, “umid ummoni”da sho‘ng‘ishi, hayotni sevishi, muhabbatdan babra olishi, gullar go‘zalligi-yu bolalar kulgisidan zavq olishi kabi barcha baxtiyorliklarning sababkorini izlaydi va shunday iqrorga keladi:

*Oqibat ne-ne saodatlarni  
Aylab intixob,  
Ey Vatan, sensan saodatboshi! –  
Deb qildim xitob.*

Ya‘ni barcha saodatlarning boshchisi – Vatan omon bo‘lsa, lirik qahramon qalbi shavqqa to‘la bo‘ladi. Quyosh uning Vatani ufqiga bosh qo‘ygan kechalarda lirik qahramon sevinch ko‘zyoshlari ilá Vatan tufrog‘ini o‘padi. Vatan bilan faxrlanishni o‘ziga sharaf, mehrini tengsiz deb biladi:

*Ne muborak lahzakim, men  
Iftixoring angladim,  
Ham ko‘ngil dunyosida  
Mehringni mumtoz ayladim.*

Ham bu ko‘nglim to buyuk –  
Ishqingdin etmishdir navo,  
Ul navosiz benavodir,  
Benavodir, benavo!..

Adabiyotshunos D.Nazarova mazkur g‘azalning so‘nggi baytlari haqida fikr yuritar ekan: “Ko‘ngli

vatan ishqı bilan to‘lgan inson hayratga, ishqqa hamisha hamohang bo‘ladi. Bunday hisdan mosuvo odam “benavodir”, – deya talqin qiladi. Fikrga tayanilsa, baytda gap “ko‘ngli vatan ishqı bilan to‘lgan inson” va “bunday hisdan mosuvo odam” haqida borayotgan ko‘rinadi. Holbuki, shoir ko‘ngilning Vatan ishqida navo qilishi, ishqisiz u (ko‘ngil) benavo ekanligini nazarda tutgan. U yurt qayg‘usi bilan nafas oladi.

Jamol Kamolning “O‘zbekiston” qasidasida Vatan mavzusi keng planda yoritilgan. Muxammas shaklidagi yetti banddan iborat she’lda lirik qahramon Vatan obraziga murojaat qiladi.

*Qachon ko‘z ochdim-u, otashli  
osmoning qachon ko‘rdim,*

*Qachon ko‘rdim, qachon yondim,  
qachon kuymoqqa ulgurdim!..*

*Chamanda bosh qo‘yib  
yaproqlaringga, nash’alar surdim,  
Gahi majnunshior yurdim,  
Gahi mastona oh urdim,  
Qachon bo‘ldi bularning barchasi,  
ey, onajon yurtim?..*

Qasidaning dastlabki ikki bandi she’r syujetidagi tugun bo‘lib, lirik qahramon Vatan ishqida ro‘y bergen ruhiy holatlari qachon yuzaga kelganligiga javob izlaydi. Ammo bu kabi savollarga javob berish oson emas. Lirik qahramon ong-u shuurida, qalb qo‘rida topgan javoblarini bayon etishni istaydi. Vatanini butun dunyoga tanitish uning tilagi. U ona diyoriga bag‘ishlab kitoblar yozmoqchi. Shu maqsad bilan yurt tarixiga razm solib sehrli ertaklar olamiga kirgandek xayolga cho‘madi. Sehrli tarix ayon va sirli, olis zamonlardagi sirli yulduz, vahimali jang-u suronlar sifatida lirik qahramon ko‘z o‘ngida gavdalananadi. Lekin u, bu “javob”lar bilan qanoatlanmaydi:

*Javobim keldi bir dunyo  
Va lekin qonmadim aslo,  
Agarchi tarixing Bobur kabi  
daftardin o'tkardim...*

Shoir tarixni "Bobur kabi daftardin o'tkar"ar ekan, uning qalbida Vatan aks-sado beradi:

*Ovozing keldi ko'kni tilkalab o'tgan quyunlardan,  
Quyunlar qo'ynida mash'al bo'lib yongan fununlardan,  
Bayot-u she'r kabi sargashta savdo-yu jununlardan,  
"Ko'kni tilkalab o'tgan quyunlar" –*

Yurt tarixinining g'amli kurnlari, unda istibdodlar, ayg'oqchilar-u yurtfurushlarning yetkazgan ozorlari; "Quyunlar qo'ynida mash'al bo'lib yongan fununlar" – ma'naviy-ma'rifiy yuksalishlar, ilm-fan va taraqqiyotda erishilgan yutuqlar; "Bayot-u she'r kabi sargashta savdo-yu jununlar" – ishq va she'r ahli, ya'ni san'at va adabiyot muhiblari bor. Umuman, lirik qahramon shuurida mana shular Vatan sifatida gavdalaniadi. Bu suratga lirik qahramon goh giryon, goh sevinib boqadi. Lirik qahramon unda akslangan asrlar osha yurt bilan hamroh faryod-u fig'on, zulm-u sitam, ta'qibga uchragan "daho birlan buyuklik"dan aziyat cheksa, "Muzaffar Hurriyat keltir"gan saodatlardan, "nurli bir olam" ko'ringanidan faxr tuyadi. U Ona Vatan kamoloti, betakror tabiat, bog'-u rog'lari, kelajak davomchilari – farzandlarni madh etar ekan, "gulshanga yuz burdim", "boshingdan o'rgildim" deya iqrorlar keltiradi. Tabarruk Vatanga:

*Sevikli O'zbekistonsan,  
Quyosh nazmida dostonsan,  
Ki, men ham zarra bir xoking,  
kelib poyingga o'ltirdim!.. –  
deya o'z sadoqatini izhor etadi.*

Xullas, Jamol Kamol ijodini kuzatgan o'quvchi unda Vatan mavzusi yetakchi mavzulardan ekanligiga amin bo'ladi. Ijodkor bu mavzuda turli janrlarda qalam tebratgan va janr tabiatidan kelib chiqib ba'zan Vatanni ta'riflasa, ba'zan u bilan muloqotga kirishadi, ba'zan o'kinsa, ba'zan u bilan g'ururlanadi.

Shoir ijodining dastlabki namunalarida Vatan va uning tabiatidan hayratlanish kuzatilsa, keyingi davrlariga xos she'rlarda mavzuga falsafiy mushohada yuritish bilan yondashilgan.

Jamol Kamol uchun Vatan eng buyuk boylik. Uni asrash har bir inson chekiga tushgan eng avvalgi vazifa:

*Kiprik ketar, ko'z qolar,  
Qolar Vatan – jonajon.  
Jamoldan shu so'z qolar:  
Avval Vatan, keyin jon!..*



#### Muqovada

Rassom Dilorom Mamedovning "Vatan ruhi" asaridan foydalаниди.

Bosishga 25.06.2023-yilda ruxsat berildi.

Qog'oz bichimi: 84x108  $\frac{1}{16}$ , Nashriyot hisob tabog'i: 8 Obuna indeksi – **822**.

ISSN 0207-9135.

Jurnal 2007-yil 4-mayda Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan № 0253 raqamni bilan ro'yxatga olingan.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmaiar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Jurnaldan ko'chirib bosilganda "Yoshlik"dan olindi" deb izohlanishi shart.

"PRINT-MAKON" MChJ bosmaxonasida chop etildi. Buyurtma № 19. Adadi: 1575. Toshkent shahri, Chilonzor tumani, 25-mavze, 47-uy, 45-xonodon. Tel.: 97 742 17 41